

UO'T: 635.67:631.52:631.543

## SABZAVOT MAKKAJO‘XORI NAV VA DURAGAYLARINI TURLI MUDDATLARDA EKIB, MAQBUL EKISH MUDDATLARINI ANIQLASH

Ostonaqulov T.E

*q.-x.f.d., professor,*

Nurillayev I.X

*Doktorant Qarshi davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada sabzavot makkajo‘xori moslanuvchan nav va duragaylarini takroriy ekin sifatida turli ekish muddatlarida o‘stirilganda o‘sishi, rivojlanishi, tup, barg sathi, yer ostki va ustki qismlari shakllanishi, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, don va silos massa hosildorligini o‘rganish natijalari bayon etilgan. Sabzavot makkajo‘xori ajratilgan moslanuvchan nav va duragaylarini (Yangi hayot, Megaton F<sub>1</sub>) takroriy ekin sifatida esa erta (30 iyun-10 iyul) ekish bilan 5,3-7,2 t/ga don hosildorligiga erishish mumkin ekanligi isbotlandi.

**Kalit so‘zlar:** sabzavot (shirin) makkajo‘xori, nav, duragay, takroriy ekin, ekish muddati, o‘suv davri, barg sathi, hosildorlik.

**Kirish.** Sabzavot makkajo‘xorini asosiy va takroriy ekinlar sifatida o‘stirish eng avvalo ekish muddatlarini to‘g‘ri belgilashga bog‘liq. Bahorda ekish tuproq urug‘ ko‘miladigan qatlamda 10-12°C qiziganda boshlanadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilarining ta’kidlashicha, juda ertagi ekilganda urug‘lar chirib ketadi, kech ekilganda begona o‘tlar bosishi mumkin. Takroriy ekin sifatida esa Respublika turli hududlarida 5-20 iyungacha ekish tavsiya etiladi [4].

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, shirin makkajo‘xoridan yuqori va sifatli don hosili olish uning moslanuvchan nav-duragaylarini to‘g‘ri tanlashga, ekin biologiyasining hisobga olgan holda asosiy va takroriy ekinlar sifatida o‘stirish uchun qulay ekish muddatlarini aniqlashga bog‘liq.

Shuni hisobga olib, biz moslanuvchan shirin makkajo‘xori nav-duragaylarini turli muddatlarda takroriy ekin sifatida o‘rganish maqsadida dala tajribasi o‘tkazdik.

Dala tajribalari Qarshi tumani Turdiyeva Gulzoda fermer xo‘jaligi qadimdan sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida olib borildi.

**Material va uslublar.** Tadqiqotning maqsadi-shirin (sabzavot) makkajo‘xorining moslanuvchan nav-duragaylarini takroriy ekin sifatida turli muddatlarda ekib, o‘sishi, rivojlanishi, tup va barg sathi shakllanishi, o‘simlik yer ostki va ustki qismlarining shakllanishi, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, don va silos massa hosildorligini aniqlashdan iborat. Buning uchun sabzavot makkajo‘xorining ajratilgan moslanuvchan Yangi hayot, Megaton F<sub>1</sub> nav-duragaylarini davlat reyestriga kiritilgan Sherzod navi bilan taqqoslandi. O‘rganilgan nav-duragaylar takroriy ekin sifatida 30.06, 10.07, 20.07 va 30.07 muddatlarda bir xil tartibda (90x20sm) va 5-6 sm ekish chuqurlikda ekildi. Delyankaning maydoni 18 m<sup>2</sup>. Takrorlar soni 4 ta bo‘ldi.

Barcha agrotexnik tadbirlar, kuztish, o‘lchash, hisoblash va tahlillar umumqabul qilingan uslublar, meyoriy-huquqiy hujjatlar va tavsiyalar asosida olib borildi [1,2,4,5,6].

**Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi.** Olingan natijalarga ko‘ra, shirin makkajo‘xori o‘rganilgan nav va duragaylarining o‘suv davri asosiy ekin sifatida o‘sirilganda 75-81 kunni tashkil etib, nisbatan tezpishar – Sherzod, Yangi hayot, Bonus F<sub>1</sub>, Gold F<sub>1</sub>, Zamin, Zamon nav-duragaylari bo‘ldi. Takroriy ekin sifatida esa o‘suv davri 77-85 kun bo‘lib, nisbatan (77-79 kun) tezpishar nav-duragaylar bo‘lib, Sherzod, Yangi hayot, Zamin, Zamon, Mazza, kechpishar (81-85 kun) Driver F<sub>1</sub>, Evrika, Favorite, Megaton F<sub>1</sub>, Bonus F<sub>1</sub>, Gold F<sub>1</sub>, Sentinel F<sub>1</sub>, Trophy F<sub>1</sub> aniqlandi.

O‘simlikning o‘sish va rivojlanishi o‘rganilgan nav hamda duragaylar bo‘yicha asosiy va takroriy ekin sifatida o‘sirilganda keskin o‘zgarib, jadal o‘sish so‘talash fazasigacha kuzatilib, baland bo‘yli (182,0-197,0 sm), serbargli (12,0-13,0 dona) o‘simliklar Megaton F<sub>1</sub>, Bonus F<sub>1</sub>, Gold F<sub>1</sub>, Favorite, Sentinel F<sub>1</sub>, Mazza, Yangi hayot nav-duragaylarida qayd etildi. Asosiy ekin sifatida shirin makkajo‘xori nav va duragaylari o‘sirilganda 5-6 chinbarglik davrida 0,08-0,12 m<sup>2</sup>, 10-12 chinbarglik davrida 0,52-0,71 m<sup>2</sup>, ro‘vaklash davrida 0,62-0,85 m<sup>2</sup>, so‘talash davrigacha eng jadal o‘sish kuzatilib, 0,69-0,93 m<sup>2</sup> barg sathi shakllanib, keyingi o‘lchashlarda uning susaygani va to‘la pishish davrida 0,74-1,00 m<sup>2</sup> ni tashkil etgani aniqlandi. Ro‘vaklash va so‘talash davrida eng yuqori barg sathi shakllanishi (0,66-0,80 m<sup>2</sup>)

Zamin, Zamon, Yangi hayot navlarida, ( $0,79\text{-}0,93\text{ m}^2$ ) Megaton F<sub>1</sub>, Bonus F<sub>1</sub>, Gold F<sub>1</sub>, Sentinel F<sub>1</sub> duragaylarida kuzatildi. Takroriy ekin sifatida esa eng yuqori barg sathi qayd etilgan nav-duragaylarda qayd etilib, navlarda  $0,69\text{-}0,74\text{ m}^2$ , duragaylarda  $0,80\text{-}0,85\text{ m}^2$  ni tashkil etdi. Eng kam barg sathi ( $0,52\text{-}0,55\text{ m}^2$ ) Evrika, Driver F<sub>1</sub> nav-duragaylarida aniqlandi.

Maydon birligida barg sathi hosil bo‘lishi keskin farqlanib, 5-6 chinbarglik davrida asosiy ekin sifatida  $-3,3\text{-}7,2$ , takroriy ekin sifatida  $-2,7\text{-}6,1$  ming  $\text{m}^2/\text{ga}$ , 10-12 chinbarglik davrida, mos ravishda,  $26,6\text{-}41,0$  va  $21,6\text{-}35,5$ ; ro‘vaklash davrida  $-29,9\text{-}47,1$  va  $27,7\text{-}41,6$ ; so‘talash davrida  $-33,3\text{-}51,6$  va  $28,8\text{-}47,1$ ; sut pishish davrida  $-34,4\text{-}53,8$  va  $29,9\text{-}49,3$ ; mum pishish davrida  $-35,5\text{-}55,5$  va  $31,0\text{-}51,0$ ; to‘la pishish davrida esa  $35,5\text{-}55,5$  va  $31,0\text{-}51,0$  ming  $\text{m}^2/\text{ga}$  ni tashkil etdi. So‘talash davrida asosiy va takroriy ekin sifatida shirin makkajo‘xori nav-duragaylarida eng yuqori maydon birligida barg sathi ( $34,9\text{-}44,4$  ming  $\text{m}^2/\text{ga}$ ) Sherzod, Zamin, Zamon, Yangi hayot, Mazza, Evrika navlarida, Megaton F<sub>1</sub>, Bonus F<sub>1</sub>, Gold F<sub>1</sub>, Sentinel F<sub>1</sub> ( $44,4\text{-}51,6$  ming  $\text{m}^2/\text{ga}$ ) duragaylarida qayd etildi.

O‘rganilgan nav va duragaylar paykalning fotosintetik potensiali rivojlanish davrlari bo‘yicha sezilarli farqlanib, o‘suv davri davomida asosiy ekin sifatida ekilganda o‘rganilgan nav-duragaylar bo‘yicha 3091,7 dan (Driver F<sub>1</sub>) 5112,2 ming  $\text{m}^2/\text{ga}$  x kunda (Megaton F<sub>1</sub>)gacha, takroriy ekin sifatida ekilganda esa 2798,7 dan (Driver F<sub>1</sub>) 4578,1 ming  $\text{m}^2/\text{ga}$  x kunda (Megaton F<sub>1</sub>)gachani tashkil etdi. Eng yuqori ( $3368,8\text{-}4283,6$  ming  $\text{m}^2/\text{ga}$  x kun) paykalning fotosintetik potensiali Zamin, Zamon, Yangi hayot, Favorite, Mazza navlarida hamda Megaton F<sub>1</sub>, Bonus F<sub>1</sub>, Gold F<sub>1</sub>, Sentinel F<sub>1</sub> duragaylarida ( $4250,5\text{-}5112,2$  ming  $\text{m}^2/\text{ga}$  x kun) ma’lum bo‘ldi. Eng past ko‘rsatkich ( $2798,7\text{-}3091,7$  ming  $\text{m}^2/\text{ga}$  x kun) Driver F<sub>1</sub>, Evrika nav-duragaylarida kuzatildi. Baquvvat ildiz tizimli va yashil massali o‘simlik yer ustki qismi butun o‘suv davri davomida, shu jumladan so‘talash davrida  $160,3\text{-}178,9$  g yer ostki,  $1168,4\text{-}1195,3$  g – yer ustki massa Sherzod, Zamin, Zamon, Yangi hayot, Mazza, Megaton F<sub>1</sub>, Bonus F<sub>1</sub>, Gold F<sub>1</sub>, Sentinel F<sub>1</sub> nav-duragaylarda, eng past ildiz massasi ( $148,7\text{-}158,5$  g) va yer ustki massa ( $1153,2\text{-}1168,5$  g) Evrika, Driver F<sub>1</sub>, Trophy F<sub>1</sub> nav-duragaylarda kuzatildi. Asosiy mahsuldarlik ko‘rsatkichlari, ya’ni tupdagisi eng ko‘p so‘talar soni ( $1,9\text{-}2,5$  dona), so‘talar vazni ( $336,2\text{-}367,6$  g), eng yuqori don chiqimi ( $82,6\text{-}85,0\%$ ), eng yirik donlar ( $1000$  tasining vazni  $231,8\text{-}247,2$  g) Megaton F<sub>1</sub>, Bonus F<sub>1</sub>, Gold F<sub>1</sub>, Sentinel F<sub>1</sub>, Yangi hayot,

Zamon nav-duragaylarida aniqlandi. Tadqiqotlar o'tkazilgan 2022-2024 yillarda o'rtacha don hosildorligi tajriba variantlarida gektaridan asosiy ekin sifatida ekilganda 5,0 dan 7,6 tonnagacha, takroriy ekin sifatida ekilganda 4,7 dan 7,4 tonnagacha o'zgardi.

Asosiy ekin sifatida shirin makkajo'xori moslanuvchan nav (duragay)lari 10 mart muddatida ekilganda o'rtacha gektaridan 5,5-7,2 tonna hosildorlikni ta'minlab, nazorat (10 aprel)ga nisbatan 0,2-0,5 t/ga yoki 103,3-110,5 % qo'shimcha hosil olindi.

Ekish 20 martda amalga oshirilganda 5,8-7,4 t/ga hosildorlik olinib, nazoratga (10.04) nisbatan 0,4-0,8 t/ga yoki 106,7-116,0 % ziyod hosilga erishilgan bo'lsa, 30 martda ekilganda eng yuqori hosildorlik (6,0-7,6 t/ga) olinib, nazorat variantdan 0,6-1,0 t/ga yoki 110,0-120,0 % qo'shimcha hosil olishni ta'minladi.

**Xulosa.** Qashqadaryo viloyati qadimdan sug'oriladigan sho'rланмаган оч түсли бо'з тупроqlари шароитида сабзавот маккajo'xori ajratilgan moslanuvchan nav va duragaylarini asosiy ekin sifatida 20-30 mart muddatlarida, ekish orqali gektaridan eng yuqori don hosildorligiga (5,8-7,6 t/ga) erishish mumkin ekan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Azimov B.J., Azimov B.B. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2002 (2006). - B.181-185.

2. Ostonaqulov T.E., Ismoyilov A.I., Amanturdiyev I.X., Nabiiev Ch.K. Sabzavot (shirin) makkajo'xori nav va duragaylaridan yuqori hosil olishga oid tavsiyalar. Samarqand.2019.-B.12

3. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari davlat reyestri. Toshkent, 2025. -B.98.

4. Ostonaqulov T.E., Ismoyilov A.I., Xolmurodov Sh.M. Shirin va tishsimon makkajo'xori seleksiyasi, birlamchi urug'chiligi va agrotexnologiyasining dolzarb masalalari. Monografiya. Samarqand. 2022.-B.123.

5. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – М.: “Колос”, 1985. -C.351.

6. Литвинов С.С. Методика полевого опыта в овощеводстве. Москва. ГНУ ВНИИО. 2011. -C.648.